

MILLIY VALYUTADA MUDDATLI JAMG'ARMA OMONAT «SavingId»-sonli SHARTNOMASI

Toshkent sh

«Date»

“TBC Bank” ATB (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb nomlanadi) «DisbursementResponsiblePerson» nomidan Nizom asosida ish yurituvchi, bir tomondan va «FullName» keyingi o‘rinlarda “Omonatchi” deb nomlanadi (JShShIR: «PINFL», tug‘ilgan kun: «birthdate») ikkinchi tomondan, birgalikda “Tomonlar” deb nomlanadi, mazkur xorijiy valyutada muddatli omonat hisobvarag‘i bo‘yicha Shartnomani (keyingi o‘rinlarda “Shartnoma” deb nomlanadi) quyidagilar haqida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

- 1.1. Mazkur Shartnoma Omonatchi tomonidan “TBC Bank” ATBning mahsulot va xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha Bosh shartlarga (keyingi o‘rinlarda “Bosh shartlar”), ushbu Shartnomaning shartlariga rozilik bildirish va bank hisobvaraqlarini ochish hamda xizmat ko‘rsatish va boshqa bank mahsulotlarini va xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha Ariza/So‘rovni imzolash/qabul qilish orqali tuziladi. Omonatchi uchun masofadan turib muddatli omonat hisobvarag‘ini ochish (20606) va unga Omonatchining mablag‘larini kiritish rozilikni ifodalaydi. Shartnoma muddatli omonat hisobvarag‘iga mablag‘lar kelib tushgan sanadan boshlab tuzilgan hisoblanadi.
- 1.2. Mazkur Shartnoma Bosh shartlar va Ariza/So‘rovning ajralmas qismidir.
- 1.3. Ushbu Shartnomada foydalanilgan atamalar va ta‘riflar Bosh shartlarda ko‘rsatilgan.

2. SHARTLAR, PUL MABLAG‘LARINI JOYLASHTIRISH VA QAYTARISH

- 2.1. Omonatchi pul mablag‘arini faqatgina naqd bo‘lmagan shaklda kiritadi va Bank ushbu mablag‘larni mazkur Shartnomada belgilangan shartlar asosida masofaviy bank xizmatlarini taqdim etish tizimi orqali Omonatchidan qabul qilib oladi hamda omonat summasini va hisoblangan foizlarni Shartnomada belgilangan tartib va shartlarga muvofiq qaytarish majburiyatiga ega.
- 2.2. **Shartnoma shartlari:**
 - 2.2.1. Foiz stavkalari: «InterestRate» yillik;
 - 2.2.2. Omonat muddati (oylar soni): «Terms»;
 - 2.2.3. Muddatli omonat ochish uchun minimal summa: Ushbu turdagi depozit uchun bankning Tariflariga ko‘ra;

- 2.2.4. Maksimal summa: Ushbu turdagi depozit uchun bankning Tariflariga ko'ra;
 - 2.2.5. Qo'shimcha to'lovlar: ko'zda tutilgan;
 - 2.2.6. Pul mablag'larini qisman yechib olish: Tariflarda nazarda tutilgan minimal summagacha;
 - 2.2.7. Omonatni muddatdan oldin to'liq yopish quyidagi shart bilan ko'zda tutilgan, agar Omonatchi masofaviy bank xizmatlarini taqdim etish tizimi orqali O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksiga muvofiq belgilangan muddat ichida o'z niyati haqida xabar bersagina. Bank Omonatchining so'roviga muddatidan oldin javob berish huquqiga ega. Shu bilan birga, hisoblangan va to'langan foizlarni quyidagi stavkalar bo'yicha qayta hisoblaydi: «PenaltyRates». Foizlar bo'yicha ortiqcha to'langan summa Bank tomonidan asosiy omonat summasidan ushlab qolinadi;
 - 2.2.8. Agar omonat muddatidan oldin yopilayotgan vaqtida, omonat bo'yicha ushlab qolinadigan hisoblangan va to'langan foizlar summasi omonat qoldig'i miqdoridan ko'p bo'lsa, omonat muddatidan oldin yopilishi mumkin emas;
 - 2.2.9. Agar Omonatchi ushbu depozit mahsuloti doirasida bankdan qo'shimcha mukofotlar (shu jumladan keshbek) yoki boshqa rag'batlantiruvchi to'lovlarni olgan bo'lsa, Bank ushbu bandning birinchi xatboshida nazarda tutilgan summalarni ushlab qolishdan tashqari, ushbu Shartnoma tuzilgandan keyin to'langan barcha qo'shimcha mukofotlarni (keshbeklarni) ushlab qoladi;
 - 2.2.10. Qo'shimcha to'lovlar va muddatli omonatni to'liq yopish imkoniyati quyidagi holatlarda mavjud bo'lmasligi mumkin:
 - Agar masofaviy bank xizmatini taqdim etish tizimi bank operatsiyalari ishtirokchilarining birida mavjud texnik sabablariga ko'ra vaqtinchalik ishlamasa;
 - Operatsion kunning yopilish jarayonida.
 - 2.2.11. Foizlarni kapitalashtirish ko'zda tutilmagan.
- 2.3. Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish instrumentlari yordamida ushbu shartnomani qabul qilish orqali Omonatchi ushbu bank mahsuloti bo'yicha Bank tomonidan taklif etilayotgan tariflar, limitlar va shartlarga o'z roziligini bildiradi.
 - 2.4. Muddatli omonat hisobvarag'iga kelib tushayotgan pul mablag'lari shu kunning o'zidayoq kirim qilinadi.
 - 2.5. Omonat muddati tugaganidan so'ng pul mablag'lari Omonatchining ixtiyoriga ko'ra Bankda ochilgan istalgan hisobvarag'iga yoki bank kartasiga yoki virtual kartasiga faqatgina naqdsiz shaklda keyingi bank operatsion kunidan kechiktirmagan holda o'tkaziladi.
 - 2.6. Omonat Omonatchining ixtiyoriga ko'ra muddatidan oldin yopilgan taqdirda, mablag'lar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida nazarda tutilgan muddatlarda Bankda

ochilgan istalgan hisobvarag'iga yoki bank kartasiga yoki virtual kartasiga faqat naqd pulsiz shaklda o'tkaziladi.

- 2.7. Agar TBC UZ mobil ilovasida "avtomat ravishda uzaytirish" tugmasi yoqilgan bo'lsa, shartnoma omonat yangilangan kuni mahsulot tariflarining amaldagi shartlariga muvofiq avtomatik ravishda yangilanadi. Agar Omonatchi omonat muddatini uzaytirishni istamasa, "avtomat ravishda uzaytirish" tugmasi omonat muddati tugashidan kamida 1 hafta oldin Omonatchi tomonidan o'chirilishi kerak. Agar Bank Omonatchi bilan shartnoma tuzilgan depozit mahsulotini yopishga qaror qilsa, "avtomat ravishda uzaytirish" tugmasi faollashtirilganidan qat'i nazar, Shartnoma bekor qilinadi.
- 2.8. Soliq rezidenti maqomiga ega bo'lmagan O'zbekiston Respublikasining Omonatchi-norezidentlaridan omonat bo'yicha to'lanadigan foizlar (daromadlar) summasidan hamda istalgan hisobvaraqlardan akseptsiz tartibda va keyinchalik budjetga o'tkazgan holda O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi talablariga muvofiq Bank tomonidan to'lovlar manbaidan soliq ushlab qolinadi.
- 2.9. Muddatli omonat hisobvarag'iga qabul qilib olingan pul mablag'lari 200 000 000 (ikki yuz million) so'mgacha bo'lgan miqdorda O'zbekiston Respublikasi banklarida fuqarolarning omonatlarini kafolatlash fondi tomonidan 18.02.2025 yildagi O'RQ-1031-son "Banklardagi omonatlarini himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq kafolatlanadi.

3. FOIZLARNI HISOBLASH VA TO'LASH

- 3.1. Foizlar har kuni amalga oshirilgan barcha operatsiyalarni hisobga olgan holda omonat hisobvarag'idagi eng kichik qoldiq bo'yicha Omonatchining muddatli omonatga pul mablag'lari kiritilgan kundan keyingi kundan boshlab tegishli ish kunida bir ish kuni ichida Omonatchiga qaytarilishi yoki boshqa sabablarga ko'ra muddatli omonatdan to'liq hisobdan chiqarilishidan oldingi kunigacha hisoblanadi.
- 3.2. Foizlarni to'lash: Ushbu turdagi omonat uchun Bankning Tariflariga ko'ra.
- 3.3. 29.09.2023 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3460 "Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to'g'risidagi" Nizomga muvofiq Omonatchi hisobida omonat haqiqatda joylashtirilgan kalendar kunlarning soni asos qilib olinadi. Shu bilan birga, hisob-kitob qilinadigan kunlar soni bir yilda 365 kun deb olinadi.

4. TOMONLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

4.1. Omonatchi huquqlari:

- 4.1.1. Masofaviy bank xizmatlarini taqdim etish tizimi orqali Bankdan muddatli omonatni to'liq talab qilish;

- 4.1.2. Masofaviy bank xizmatlarini taqdim etish tizimi yordamida qo‘shimcha pul mablag‘larini muddatli omonat hisobvarag‘iga kiritish;
- 4.1.3. Bankning ushbu turdagi depozitlar bo‘yicha tariflariga muvofiq maksimal miqdordagi muddatli hisobvaraqlar ochish.

4.2. **Omonatchi majburiyatlari:**

- 4.2.1. Mazkur Shartnoma shartlari bilan tanishib chiqish;
- 4.2.2. Hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni qat‘iy ravishda ushbu Shartnomaga, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank va boshqa vakolatli organlarning normativ hujjatlariga muvofiq amalga oshirish. Masofaviy bank xizmatlarini taqdim etish tizimi orqali hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida hisobvarag‘larni ochish uchun taqdim etilgan hujjatlar va ma‘lumotlarning to‘g‘riligi uchun Omonatchi javobgardir;
- 4.2.3. Hisobvaraqlarga xatolik bilan kiritilgan va/yoki hisobvaraqlardan xatolik bilan yechib olingan mablag‘lar aniqlangan bo‘lsa, bu haqida har qanday mavjud usulda Bankga xabar berish; Xatolik bilan kelib tushgan pul mablag‘larini o‘z maqsadlari uchun ishlatmaslik hamda ularni Bankga darhol qaytarish uchun barcha choralarni ko‘rish. Xatolik bilan kelib tushgan pul mablag‘larini noqonuniy ushlab turish holatlarida, Bank O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida, Bosh shartlarda belgilangan choralarni ko‘radi;
- 4.2.4. Manzil va/yoki telefon raqami, shu jumladan mobil telefon, familiya, ismi yoki otasining ismi o‘zgarganida, shaxsiyatini tasdiqlovchi hujjat yoki mazkur Shartnoma shartlari bajarilishiga ta‘sir qila oladigan boshqa hujjatlar almashtirilganida, Bosh shartlarda belgilangan aloqa kanallari orqali 3 (uch) kalendar kun davomida Bankga xabar berish.

4.3. **Bank huquqlari:**

- 4.3.1. Agar tegishli davlat organlaridan ijro hujjatlari kelib tushsa, Omonatchining e‘tirozlariga qaramay, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda choralarni ko‘rish, ya‘ni pul mablag‘larini xatlash, pul mablag‘larini aktspetsiz tartibda hisobdan chiqarish, hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatish va h.o, shu jumladan Omonatchi hisobvaraqlari bo‘yicha pul mablag‘lari xatolik bilan qabul (kirim) qilingan holatlari aniqlanganida, qaytarish uchun muddatli omonat hisobvarag‘i bo‘yicha hisoblangan va to‘langan mukofotlarni aktseptsiz tartibda yechib olish;
- 4.3.2. Bank yangiliklari, shuningdek, Omonatchining muddatli omonat hisobvarag‘i bo‘yicha amalga oshirilgan operatsiyalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni SMS ko‘rinishida Ariza/So‘rovda ko‘rsatib o‘tilgan Omonatchi mobil raqamiga yoki pochta xabari sifatida elektron manzilga yuborish;

- 4.3.3. Jinoyatchilik yo‘li bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi harakat etish maqsadida, Bank Omonatchidan uning muddatli omonat hisobvarag‘i bo‘yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalarni qonuniyligini tasdiqlovchi ma‘lumot va hujjatlarni taqdim etilishini talab qilish huquqiga ega;
- 4.3.4. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida hamda jinoyatchilik faoliyati va terrorizmni moliyalashtirishdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan holatlarda muddatli omonat hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni va foizlar hisoblanishini to‘xtatib turish yoki ularni amalga oshirishdan bosh tortish;

4.4. **Bank majburiyatlari:**

- 4.4.1. Muddatli omonat hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini va hisoblangan foizlarni Omonatchiga mazkur Shartnomada belgilangan tartib va shartlarga muvofiq qaytarish;
- 4.4.2. Hisobvaraqdagi pul mablag‘larining xavfsizligini va yaxlitligini ta‘minlash. Hisobvaraqdagi mablag‘larni xatlash yoki hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatish O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan holatlardagina amalga oshiriladi.

5. **BANK SIRI**

- 5.1. Bank O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri”, Bosh shartlar va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq bank sirini tashkil etuvchi Omonatchi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar maxfiyligi va saqlanishini kafolatlaydi.
- 5.2. Bank sirini tashkil etuvchi ma‘lumotlarni Bank Omonatchiga yoki uning vakolatli vakiliga uning (yozma ravishda yoki elektron ko‘rinishda taqdim etilgan va Omonatchi ma‘lumotlarini to‘liq identifikatsiyalashtirganidan so‘ng) so‘roviga muvofiq taqdim etishi mumkin.
- 5.3. Bank sirini tashkil etuvchi Omonatchi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar uchinchi shaxslarga O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

6. **TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI**

- 6.1. Tomonlar o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun, Bosh shartlarni va mazkur Shartnomani bajarmagan Tomon O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda javobgardir.
- 6.2. Mazkur Shartnomaning shartlariga rozilik berib, Omonatchi u tomonidan joylashtirilgan pul mablag‘lari qonuniy manba‘ga egaligini hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadni

qonuniylashtirish jarayoniga, terrorizmni va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatish uchun moliyalashtirish jarayonlariga jalb qilinmaganligini kafolatlaydi.

- 6.3. Agar Omonatchi tomonidan muddatli omonat hisobvarag'idan foydalangan holda amalga oshirilgan shubhali operatsiyalar aniqlansa, Omonatchi amalga oshirilgan operatsiyani qonuniyligini yozma ravishda tushuntirmagunicha, Bank ushbu xizmatni to'xtatib turish yoki taqdim etmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.

7. MAXSUS SHARTLAR

- 7.1. Bank tomonidan olingan shaxsiy ma'lumotlar quyidagi maqsadlar uchun foydalaniladi va foydalanilishi mumkin:

- 7.1.1. Omonatchi foyda oluvchi yoki manfaatdor tomon hisoblangan shartnomalarni tuzish va bajarish;
- 7.1.2. Omonatchining huquqlari va majburiyatlarini lozim darajada bajarilishini ta'minlash;
- 7.1.3. Ma'lumotlarni tekshirish, shu jumladan firibgarlik bilan bog'liq operatsiyalarga yo'l qo'ymaslik maqsadida;
- 7.1.4. Shartnomalarni bajarish bilan bog'liq ma'lumotlarni, uchinchi tomonlar bilan birgalikda olib borilayotgan dasturlarda ishtirok etuvchi uchinchi shaxslar ma'lumotlarini Omonatchiga ma'lum qilish;
- 7.1.5. Sug'urta, pochta tashkilotlariga, aloqa tashkilotlariga taqdim etish;
- 7.1.6. Bank tomonidan statistik va/yoki marketing tadqiqotlarini o'tkazish va/yoki Omonatchini Bankning yangi mahsuloti va xizmatlari hamda Bank hamkorlari haqidagi ma'lumot to'g'risida xabardor etish;
- 7.1.7. Muddati o'tgan qarzlarni undirish maqsadida davlat va boshqa tashkilotlarga taqdim etish;

- 7.2. Omonatchi muddatli omonat hisobvarag'idagi pul mablag'larini mustaqil ravishda o'z ixtiyoriga ko'ra boshqaradi, Bosh shartlarda, mazkur Shartnomada hamda amaldagi qonunchilikda belgilangan holatlar bundan mustasno.

- 7.3. Bank Omonatchining pul mablag'laridan foydalanish usulini belgilash va nazorat qilish, shuningdek, pul mablag'laridan foydalanish va ularni boshqarish bo'yicha Omonatchini huquqlariga nisbatan cheklovlarni belgilash huquqiga ega emas.

- 7.4. Shartnomada belgilanmagan Bank va Omonatchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar Bosh shartlar hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq tartibga solinadi.

- 7.5. Tomonlar uchun Omonatchining hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Makraziy bankining normativ va huquqiy hujjatlari asosida belgilanadi va har ikki Tomon uchun majburiydir.

8. YOPISH VA SHARTNOMANI BEKOR QILISH TARTIBI

- 8.1. Muddatli omonat hisobvarag'ini yopish uchun Omonatchi ixtiyoriga ko'ra masofaviy bank xizmatlarini taqdim etish tizimidan foydalangan holda yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ushbu Shartnomani bekor qilish asos bo'lib xizmat qiladi.
- 8.2. Shartnoma uni qabul qilgan daqiqadan boshlab kuchga kiradi. Shartnoma ma'lum muddatga tuzildi va mazkur Shartnomaning 2.2.2-bandida belgilangan muddatgacha yoki Omonatchi tashabbusi bilan istalgan vaqtda yoki Omonatchi tomonidan Shartnoma majburiyatlarini bajarmaganligi sababli Bankning talabiga ko'ra sud tomonidan bekor qilgan kuniga qadar yoxud O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan boshqa holatlar mavjud bo'lgan kuniga qadar amal qiladi.
- 8.3. Barcha o'zgarishlar va qo'shimchalar mazkur Shartnomaga Bosh shartlarda ko'rsatib o'tilgan tartibda kiritiladi.